

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.12.2019. Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

**ZAKIROVA NILUFAR RUSTAMOVNA**

**INGLIZ VA RUS YOZUVCHILARINING BADIY ASARLARIDA**  
**INTERTEKST FUNKSIYALARI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)**  
**DISSERTATSIYASI AFTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
philological sciences**

**Zakirova Nilufar Rustamovna**

Ingliz va rus yozuvchilarining badiiy asarlarida intertekst funksiyalari .....3

**Закирова Нилуфар Рустамовна**

Функции интертекста в художественных произведениях английских и русских писателей.....23

**Zakirova Nilufar Rustamovna**

Functions of Intertext in the Literary Text of English and Russian Writers .....47

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....51

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.12.2019. Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

**ZAKIROVA NILUFAR RUSTAMOVNA**

**INGLIZ VA RUS YOZUVCHILARINING BADIY ASARLARIDA**  
**INTERTEKST FUNKSIYALARI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)**  
**DISSERTATSIYASI AFTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.2.PhD/Fil854 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) tilda Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.uzswlu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Saparova Qunduz Otaboyevna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponenlar:** **Djumanova Dilbar Rahimovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Arustamyan Yana Yuryevna**  
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Yetakchi tashkilot:** Samarqand davlat chet tillari instituti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi DSs.03/30.12.2019.Fil.27.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ soat \_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-A uy. Tel.: (99871) 230-12-91, faks: (99871) 230-12-92, e-mail: uzswlu\_info@mail.ru.

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent Shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-A uy. Tel: (99871) 230-12-91, faks: (99871) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ da tarqatildi.  
(2024-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_ - raqamli reestr bayonnomasi).

**I.M. Tuxtasinov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, fil.f.d. Professor

**X.B. Samigova**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, fil.f.d., Professor

**J.A. Yakubov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.f.d., Professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Davrimizda tekstlarning o‘zaro ta’siri va o‘zaro aloqasini aniqlashga xizmat qiluvchi, turli til madaniyatini parallel ravishda o‘zlashtirishga qodir bo‘lgan til egasining o‘ziga xosligini dasturlovchi, turli lingvomadaniy xususiyatlarni aks ettiruvchi tekstlar o‘rtasidagi intertekstual munosabatlarni ochib berish imkonini beruvchi fanlararo metodologik bazani shakllantirish zarurati vujudga kelmoqda.

Jahon tilshunosligida intertekstuallik lingvistik hodisa sifatida tekstlarni, ayniqsa badiiy tekstlarni shakllantirishning eng muhim vositalaridan biri sifatida o‘rganiladi. Intertekstuallikni jumboqli, ko‘pqirrali, shu bilan birga jo‘yali fenomen sifatida o‘rganish zarurati tanlangan ilmiy tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi. Chunki amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, barcha yangi badiiy tekstlar amalda mavjud bo‘lganlar negizida yaratilgani holda zamon va madaniyat taqozosi bilan yozuvchining shaxsiy dunyoqarashi ta’sirida modifikatsiya qilinadi.

O‘zbek tilshunosligida intertekstuallik va intertekst muammolarini faqat muayyan bir til miqyosida emas, balki qiyosiy-tipologik jihatdan o‘rganish muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Chunki turli tizimdagi tillar materialini bo‘yicha intertekstlarning funksional xususiyatlarini qiyosiy-tipologik o‘rganish kengaytirilgan ilmiy tadqiqot nuqtayi nazaridan intertekstning ko‘p asrlik an‘analar, insoniyat tarixi va taraqqiyoti tashuvchisi yoki saqlovchisi sifatidagi mohiyatini ochib berishga, tekstlararo aloqalar va muallif g‘oyalari mazmunini adekvat tushunish yoki ziddiyatning lingvomadaniy manbalarini aniqlashga yordam beradi. Bu esa mazkur yondashuv asosida tadqiq qilishga bo‘lgan dolzarblilik va talabning ortib borayotganligini namoyon qiladi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1875-son, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son qarorlari, 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2020-yil 6-noyabrda “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son, 2020-yil 29-oktyabrda “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi “Ta’lim muassasalarida chet tillarini o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 610-son qarori hamda bu borada qabul qilingan boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnikasini rivojlantirishning “Demokratik-huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy

rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Lingvistika fani rivojlanishining hozirgi bosqichidagi intertekstuallik muammolari vatanimizda va xorijda: M.M.Baxtin, R.Bart, P.H.Torop, M.A.Zaxarova, N.A.Fateyeva, J.Genette, E.V.Mixaylova, T.A.Smirnova, M.B.Yampolskiy, E.A.Vasilyeva, Y.Kristeva, E.S.Aznaurova, D.U.Ashurova, A.Xalilova, D.M.Gaziyeva, R.D.Mansurov, A.A.Dusabayeva, N.M.Jusupov, M.R.Galiyevalar<sup>1</sup> tadqiqotlarida o‘rganilgan.

Tarjima asarlardagi intertekstuallik masalasi lingvistik muammo sifatida tarjimashunoslikda batafsil o‘rganilgan (M.L.Malaxovskaya, I.V.Arnold, T.A.Evseeva, L.I.Grishaeva<sup>2</sup>). Badiiy tekst tarjimasi intertekstuallik muammosi A.A.Guseeva, M.V.Verbitskaya, N.A.Soluyanova<sup>3</sup> va shu kabi olimlar tomonidan, qiyosiy-tipologik tahliliga asoslangan holda K.V.Rudenko, P.Torop, K.V.Bogdanov<sup>4</sup> va boshqa olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

---

<sup>1</sup>Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики: Исследования разных лет. // Искусство. – М., 1975. – 424 с.; Барт Р. Избранные работы. Семиотика. Поэтика. – М.: Прогресс, 1997. – 616 с.; Тороп П.Х. Проблема интекста // Тр. по знаковым системам: XVI Учен. Зап. Тартус. Ун-та. – Тарту, 1981. – С. 33-45; Захарова М.А. Семантика и функционирование аллюзивных имен собственных: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Самара, 2004. – 19 с.; Фатеева Н.А. Контрапункт интертекстуальности или интертекст в мире текстов. – М.: Комкнига, 2000. – 280 с.; Женетт Ж. Фигуры. – М.: Изд-во им. Сабашниковых, 1998. – 472 с.; Михайлова Е.В. Интертекстуальность в научном дискурсе (на материале статей): Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Волгоград, 1999. – 22 с.; Смирнова Т.А. Типология и функции цитат в художественном тексте // Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2005. – 130 с.; Ямпольский М. Память Тиресия. Интертекстуальность и кинематограф. – М.: РИК «Культура», 1993. – 464 с.; Васильева Е.А. Функциональная специфика аллюзивных текстов: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – СПб., 2011. – 268 с.; Кристева Ю. Бахтин, диалог и роман // Французская семиотика: от структурализма к постструктурализму. – М., 2000. – 429 с.; Азнаурова Э.С. Прагматика художественного слова. – Ташкент: Фан, 1988. – 119 с.; Ашурова Д.У. Лингвистика текста в свете новых направлений языкознания // Матн лингвистикасининг назарий ва амалий масалалари: Респ. илм.-амал. конф.мақолалари тўплами. – Тошкент, 2012. – Т. 1. – С. 9-11; Халилова А. Интертекстуальность как когнитивная категория художественного текста // Хорижий филология. – Самарканд, 2016. – № 1. – С. 82-87; Газиева Д.М. Интертекстуальность как обязательная категория медиатекста // Вестник науки и образования. – М., 2019. – №20 – С.17-19; Мансуров Р.Д. Интертекстуальность в заглавиях произведений Рея Бредбери // Бюллетень науки и практики. – Ташкент: научный электронный журнал Scientific Journal, 2019. – № 6. – С. 535-540; Дусабаева А.А. Лингвокогнитивная и интертекстуальная сущность аллюзии в английском языке: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Самарканд, 2009. – 27 с.; Джусупов Н.М. Когнитивный аспект исследования символа в художественном тексте: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 2006. – 29 с.; Галиева М.Р. Теолингвистика: истоки, направления, перспективы. – Ташкент: VneshInvestProm, 2018. – 260 с.

<sup>2</sup> Малаховская М.Л. Интертекстуальные связи в художественном тексте в сопоставительно-переводоведческом аспекте: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – СПб., 2007. – 21 с.; Евсева Т.А. Переводной художественный текст с комментарием: структурные, когнитивные и функционально-прагматические особенности: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ростов-на-Дону, 2007. – 24 с.; Гришаева Л.И. Интертекстуальность как фактор риска в переводческой деятельности // Язык, коммуникация и социальная среда. – Воронеж, 2012. – С. 46-68.

<sup>3</sup> Гусева А.А. Интертекстуальность как переводческая проблема (на материале романа Дж. Джойса «Улисс» и его перевода на русский язык): Дисс. ...канд. филол. наук. – М., 2009. – 170 с.; Вербицкая М.В. К обоснованию теории «вторичных текстов» // Филологические науки, 1989. – № 1. – С. 30-35; Солуянова Н.А. Проблема интертекстуальности в переводе: на материале переводов произведений Б. Акунина: Дисс. ...канд. филол. наук. – М., 2013. – 180 с.

<sup>4</sup> Руденко К.В. Интертекстуальный ресурс авторского идиостиля: переводческий аспект (на материале переводов текстов Б.Акунина на английский язык): Дисс. ...канд. филол. наук. – Пятигорск, 2019. – 181 с.; Тороп П. Тотальный перевод. – М.: Изд-во Тартуского ун-та, 1995. – 220 с.; Богданова К.В. Передача особенностей интертекстуальных включений при переводе с английского на русский (на материале названий эпизодов англоязычных мультипликационных телесериалов) // Вестник СПбГУ. Язык и литература. 2018. – Т. 15. Вып. 3. – С. 412-423.

Anglash lingvistik dunyoqarashning tarkibiy qismlari sifatida madaniyat tushunchalari bilan bevosita kesishadi. Intertekstuallik nazariyasi insonning kognitiv mavjudligida madaniyat xazinasining asosiy unsuri sifatida V.P.Belyanin, I.V.Gyubbenet, V.Y.Zadornova, P.V.Pervuxina, G.G.Slishkina, N.D.Arutyunova, T.N. Astafurova, G.A.Goncharova<sup>5</sup> va boshqa olimlar taqiqotlarida yoritilgan.

Bugungi kunda intertekst va intertekstuallik muammolarini u yoki bu tarzda ko'rib chiquvchi keng ko'lamli ilmiy adabiyotlar mavjud bo'lishiga qaramay, umuman, badiiy tekstdagi intertekstual aloqalar muammolari, ingliz va rus tilshunosligining funksional yuklamasi nuqtayi nazaridan monolingval aspektda kam o'rganilgan, bilingval tomondan esa qiyosiy-tipologik jihatdan tadqiq qilishga qo'l urilmagan.

Ingliz va rus tilidagi badiiy tekstlarda va umuman boshqa tillar materiallarida intertekstuallik muammolarini tadqiq qilishda ularning maqsadi, turlari, manbalarini o'rganish bilan bog'liq ko'plab masalalar hal qilinmasdan qolmoqda, shu jumladan intertekstdan foydalanish va intertekstuallik usullari haqida ham tadqiqotlar yetarli emas.

**Tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining "Zamonaviy tilshunoslikning yangi yo'nalishlari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq amalga oshirildi.

**Tadqiqot maqsadi** ingliz va rus yozuvchilarining badiiy asarlarida intertekstning funksional xususiyatlaridagi o'xshashlik va tafovutlarni aniqlash hamda tavsiflashdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

badiiy tekstning boshqa madaniy tekstlar bilan aloqasiga urg'u bergan holda intertekst tushunchasining ta'rifi va uning badiiy tasvir vositalari tizimidagi o'rini aniqlash;

ingliz va rus adabiyotida intertekstlarni tadqiq qilishda izomorfizmlarni isbotlashga qaratilgan badiiy tekstdagi intertekstlarni tasniflash mezonlarini ishlab chiqish;

ingliz va rus yozuvchilarining asarlarida intertekstuallikning fundamental shakllanishini ko'rsatishga e'tibor qaratgan holda, intertekstni manba, ifodalash usuli va funksiyasi bo'yicha statistik tahlil qilish;

intertekstning funksional xoslanishidagi, xususan, ingliz yozuvchilar tomonidan mashhur shaxslarning so'zlaridan tez-tez iqtibos keltirilishi, rus yozuvchilarining xorijiy adabiyotlardan iqtibos keltirishlaridagi o'xshashlik va farqlarni aniqlash;

---

<sup>5</sup> Белянин В.П. Психолингвистические аспекты художественного текста. – М.: Изд-во Моск. ун-та, 1988. – 123 с.; Гюббенет И.В. Основы филологической интерпретации литературно-художественного текста. – М.: Изд-во МГУ, 1991. – 204 с.; Задорнова В.Я. Восприятие и интерпретация художественного текста. – М.: Высшая школа, 1984. – 152 с.; Захарова М.А. Семантика и функционирование аллюзивных имен собственных: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Самара, 2004. – 19 с.; Первухина С.В. Понимание художественного текста: когнитивно-семантический аспект // Интерпретация текста: лингвистический, литературоведческий и методический аспекты. – Чита, 2007. – С. 97-99; Слышкин Г.Г. От текста к символу: лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании и дискурсе. – М.: Academia, 2000. – 128 с.; Арутюнова Н.Д. Интертекстуальность как одна из форм межтекстового взаимодействия: когнитивно-семиотический аспект (на материале английского языка): Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Барнаул, 2019. – 418 с.; Астафурова Т.Н. Лингвосемиотика института высшего образования // Вестник ВолГУ. Серия 2: Языкознание. – Волгоград, 2013. – № 1 (17). – С. 71-78; Гончарова Е.А. Категории автор – персонаж и их лингвостилистическое выражение в структуре художественного текста (на материале немецкоязычной прозы): Дисс. ... докт. филол. наук. – Л., 1989. – 514 с.

intertekstlarning ifoda vositasi sifatidagi farqlanishi: ingliz yozuvchilaridan farqli ravishda rus yozuvchilar intertekstni g'oyaviy nuqtayi nazardan foydalanishini tavsiflash.

**Tadqiqot obyekti** ingliz va rus yozuvchilar asarlaridagi intertekstlardir.

**Tadqiqot predmeti** ingliz va rus yozuvchilar asarlaridagi intertekstlarning funksional yuklamasi hisoblanib, intertekstlar orqali amalga oshiriladigan funksional potensial, ingliz va rus yozuvchilarining asarlaridagi badiiy tekstlarda qanday vazifalarni bajarishi tashkil qiladi.

**Tadqiqot usullari:** Tadqiqotda lingvistik tavsif usuli, kontekstual tahlil, qiyosiy metod, statistik tahlil, kross-madaniy tahlil usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

ingliz va rus badiiy tekstlarida intertekstning funksional xususiyatlarini chog'ishtirma aspektda ochib berish orqali pretsedent tekstlar faktlari asosida badiiy tekstning muhim elementi bo'lgan intertekstlarning funksional xususiyatlari ochib berilgan;

ingliz va rus badiiy adabiyotida kross-madaniy tafovutlarga ega intertekstlarning qo'llanilishida o'zlashtirish manbalari, intertekstuallikni ifodalash usullari, hamda intertekstlarning funksional yuklamasiga doir izomorf xususiyatlar allomorf xususiyatlarga ko'ra ko'proq namoyon bo'lishi isbotlangan;

ingliz va rus yozuvchilar asarlaridagi intertekstuallik har qanday tekstni yaratish uchun asosiy shakl bo'la olishi Muqaddas kitoblar (Injil, Qur'on), antik falsafa, chet el adabiyoti g'oyalari, tanqid, kinoya kabi unsurlar asosida isbotlangan;

ingliz va rus adabiyotidagi intertekstlarning qo'llanilishidagi farqlar intertekstuallikni nafaqat bevosita (to'liq, to'liqsiz), bilvosita, sintaktik aloqaning bir qismi, kirishlar bilan kengaygan, qisqa, yashirin usullar bilan balki intertekstlarning illyustrativ funksiyasiga doir g'oyaviy ifodalash bilan farqlanishi aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

badiiy tekstdagi intertekstlarni tasniflash mezonlari ishlab chiqilgan;

ingliz va rus yozuvchilarining badiiy asarlaridagi intertekst manbalari aniqlangan va tavsiflangan;

ingliz va rus badiiy tekstlarida intertekstni ifodalash usullari tasnifi ishlab chiqilgan;

ingliz va rus tilidagi badiiy tekstlardagi intertekstning funksional yuklamasidagi o'xshashlik va farqlar aniqlangan;

ingliz va rus badiiy tekstlarida intertekstni ifodalash usullari tasnifi ishlab chiqilgan;

ingliz va rus tili badiiy tekstlaridagi intertekstning funksional yuklamasidagi o'xshashlik va farqlar aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya tadqiqotining ilmiy ahamiyati manbalar bo'yicha intertekstlarning** badiiy matndagi vazifalari va intertekst usuli bo'yicha tasniflanganligi, ingliz va rus yozuvchilari badiiy asarlarida intertekst manbalarining namoyon bo'lishi, ularda intertekst keltirish usullarining, intertekstlar funksional yuklamasining aniqlanganligi, ingliz va rus tilidagi badiiy matnlarda iqtibos keltirishdagi o'xshashlik va tafovutning ochib berilishi bilan belgilanadi.

Ishning amaliy ahamiyati tadqiqot natijalari va materiallaridan oliy ta'lim muassasalarida umumiy tilshunoslik, leksikologiya, badiiy matnning lingvistik tahlili, lingvistik stilistika va matn talqini, matn lingvistikasi kabi fanlardan ma'ruza va seminar

mashg'ulotlari uchun materiallar tayyorlash va ularni o'tkazishda, dissertatsion va monografik tadqiqotlar olib borishda, o'quv-uslubiy adabiyotlarni ishlab chiqishda, lug'atlar tuzishda foydalanish imkoniyati bilan belgilanadi.

### **Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.**

Ingliz va rus badiiy tekstlarida intertekstning funksional yuklamasini o'rganish jarayonida olingan ilmiy natijalar va xulosalardan:

ingliz va rus badiiy tekstlarida intertekstning funksional xususiyatlarini chog'ishtirma aspektda ochib berish orqali presedent tekstlar faktlari asosida badiiy tekstning muhim elementi bo'lgan intertekstlarning funksional xususiyatlariga oid taklif va xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2017-2018-yillarda bajarilgan "O'zbek tiliga oid elektron va bank-moliya atamalarining ko'p tilli lug'atlarini yaratish va ularning tarjimasi" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2021-yil 24-iyundagi 01-1158-son ma'lumotnomasi). Natijada fundamental tadqiqot loyihasida belgilangan vazifalarga muvofiq tayyorlangan ko'p tilli lug'atlarning mazmunini boyitish imkoniyati yaratilgan;

ingliz va rus badiiy adabiyotida kross-madaniy tafovutlarga ega intertekstlarning qo'llanilishida o'zlashtirish manbalari, intertekstuallikni ifodalash usullari, hamda intertekstlarning funksional yuklamasi doir izomorf xususiyatlar allomorf xususiyatlarga ko'ra ko'proq namoyon bo'lishi oid amaliy taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida tizimli ravishda amalga oshiriladigan bir qator shoir va yozuvchilarning she'riy va nasriy asarlarining adabiy-estetik tahlilida foydalanilgan (O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2021-yil 22-iyundagi 01-03/852-son ma'lumotnomasi). Natijada zamonaviy o'zbek adabiyotiga mansub she'riy va nasriy asarlar mazmuni intertekstuallik nuqtayi nazardan sharhlangan;

ingliz va rus yozuvchilar asarlaridagi intertekstuallik har qanday tekstni yaratish uchun asosiy shakl bo'la olishi Muqaddas kitoblar (Injil, Qur'on), antik falsafa, chet el adabiyoti g'oyalari, tanqid, kinoya kabi unsurlar haqidagi ilmiy-nazariy xulosalardan O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida 2015-2017- yillarda bajarilgan "Madaniyatlararo va kommunikativ yondashuv nigohida magistratura mutaxassisligi bo'yicha nazariy fanlardan ingliz tilida darslik va o'quv qo'llanmalar yaratish va o'zbekcha-inglizcha-ruscha lingvistik terminlar izohli lug'atini tuzish" mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2021-yil 22-iyundagi 22/501-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur amaliy loyiha doirasida yaratilgan izohli lug'at takomillashtirilgan;

ingliz va rus adabiyotidagi intertekstlarning qo'llanilishidagi farqlar intertekstuallikni nafaqat bevosita (to'liq, to'liqsiz), bilvosita, sintaktik aloqaning bir qismi, kirishlar bilan kengaygan, qisqa, yashirin usullar bilan balki intertekstlarning illyustrativ funksiyasiga doir g'oyaviy ifodalash bilan farqlanishiga oid xulosa va takliflardan Toshkent davlat pedagogika universitetida 2015-2017- yillarda bajarilgan A-1-61 raqamli "Ko'rishda nuqsoni bo'lgan talabalar uchun tilshunoslik bo'yicha audiokitoblar yaratish" mavzusidagi ilmiy-amaliy loyihada tatbiq etilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2021-yil 24-iyundagi 01-1157-son ma'lumotnomasi). Natijada yaratilgan audiokitoblarning

mazmuni badiiy adabiyotlardagi intertekstlarni izohlash bo'yicha ma'lumotlar bilan boyitilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 4 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqotning asosiy qoidalari va natijalari 9 ta ilmiy maqolada, shulardan 8 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan respublika ilmiy jurnallarida, 1 ta xorijiy ilmiy jurnalda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 153 betni tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANI ASOSIY MAZMUNI

**Ishning kirish qismida** tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, muammoning o'rganilgan darajasi yoritilgan, maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti aniqlangan. Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilib, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari keltirilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga tatbiq etilishi, sinovdan o'tkazilishi va chop etilgan ishlar, dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **birinchi bobi "Adabiy tekst ornamentikasida intertekstuallik"** deb nomlanadi. Unda intertekstuallik hodisasi adabiy tekstlarning asosiy shakllantiruvchisi sifatida izohlanadi, intertekstuallik turlari, tasnifi amalga oshiriladi, intertekstning ishlash mexanizmlari aniqlanadi.

Bugungi kunda intertekstuallik hodisasining terminologik maqomi borasida tilshunos olimlar o'rtasida turlicha qarashlar mavjud. Tilshunoslikda bir xil hodisani, ya'ni oldingi adabiyotlardan tekst bo'laklarini olib qo'llash tushunchasi mohiyatini ochib berish uchun turli terminlar (*intertekstuallik, intertekst, intertekstema, tekst reminitsensiyasi, iqtibos, pretsedent tekst*) shakllangan.

Sanab o'tilganlar orasida **intertekstuallik** va **intertekst** terminlari nisbatan ko'p qo'llanilishini nazarda tutgan holda tadqiqotda umumiy qabul qilingan terminlardan foydalanish o'rinli deb topildi. Ilmiy adabiyotlarga asoslanib, **intertekstuallik** bu tekstlarning o'zaro ta'siri va o'zaro birikish hodisasi sifatida qaraldi. **Intertekst** termini esa boshqa tekst parchalaridan hosil bo'lgan bevosita tekst deb ta'riflandi. Intertekstdagi muayyan bir gapning o'zi o'nlab fikrlarni ifodalash xususiyatiga ega. Aynan shu holat intertekstuallik fenomenining jozibadorligi va unga bo'lgan doimiy qiziqishni namoyon qiladi.

Intertekstuallikka ta'rif berishda ikkita jihat mavjud: keng (adabiyotshunoslik yoki radikal) va tor (lingvistik) ma'nolar farqlanadi. Keng ma'nodagi intertekstuallik har qanday tekstning oldin yozilgan boshqa bir tekstlar bilan bog'lanishi sifatida qaraladi, bu madaniy kontekstni, hamma narsani qamrab oluvchi intertekstni tashkil qiladi (R.Bart, M.Riffater, J.Jennett, J.Derride va b.). Intertekstuallikning tor ta'rifiga ko'ra, u tekstlarning funksional xususiyati emas, balki faqat muayyan tekstlar yoki tekst turlari ifodalagan xususiyatidir.

Aksariyat tilshunoslar tahlilga tortish imkoniyati kuchli bo'lgan intertekstuallikka katta ahamiyat qaratib, tekstlararo munosabatlarni tor ma'noda (uning boshqa tekstlar bilan munosabatlari va aloqalarini o'rganmasdan) tadqiq qilish zarurligini ta'kidlaydilar. Chunki bunday tahlil "muayyan tekstlarni o'rganishda tadqiqotchiga imtiyozlar beradi"<sup>6</sup>.

Bizning fikrimizcha, intertekstuallikni o'rganishdagi mavjud ikkita yondashuv bir-birini istisno qilmasligi kerak. Bu borada tadqiqotchi M.Pfisterning har bir yondashuvning "o'z bilish salohiyati"<sup>7</sup> mavjudligi haqidagi qarashlarini ma'qullaymiz. Bu shuni anglatadiki, Intertekstuallikning ikkala modeli ham umuman madaniyat va insonning lisoniy faoliyati til falsafasi nuqtayi nazaridan kengaytirilgan talqinga ega. Shubhasiz, lingvomadaniy ma'lumotlarni sharhlash va muayyan darajada tahlil qilish uchun tor ma'nodagi yondashuv asosliroq va puxta bo'ladi.

Intertekstuallik nazariyasi asosan pretsendentlik nazariyasi bilan bog'lanadi. Boisi u intertekstuallikka xos belgilarni madaniy ahamiyatga ega bo'lgan tarkibga birlashtiradi. Muayyan shaxs uchun hissiy yoki axborot xarakteridagi tekstlarda mavjud bo'lgan intertekstlar tekstni shaxsiy idrok etishga ta'sir qiladi va qimmatli, doimiy o'zgaruvchan tuzilishida tekstlarning tarixiy-madaniy mozaikasi sifatida quriladi.

Intertekstlarning ko'plab turlari mavjud bo'lib, ulardan quyidagilar keng tarqalgan: 1) to'g'ridan to'g'ri (to'liq, to'liqsiz); 2) bilvosita; 3) sintaktik aloqaga kirishgan; 4) begona; 5) kirish so'zlar bilan kehgaygan; 6) qisqa; 7) yashirin; 8) g'oyaviy (majoziy, syujetli).

Tilshunoslik nuqtayi nazaridan mazkur intertekstuallik turlarining har biri tekst qanday tuzilganligi va u bilan bir xil lingvistik darajada o'zaro muvofiqligini tushunishga mos kelsa, asosiy tekst bilan uyg'unlashishi mumkin. Bu esa keyinchalik tekstni rasmiy va norasmiy analitik komponentlarga ajratuvchi kitobxon taassurotiga ta'sir qiladi.

Intertekstuallikning funksional yuklamasi shundan iboratki, muayyan tekst tarkibidagi o'zganing nutqiga har qanday havola o'zganing so'zini taniy oladigan, muhimi iqtibosni tahlil qila oladigan va uning qanday maqsad bilan kiritilganini anglay oladigan adresatga qaratiladi.

Badiiy tekstdagi intertekstuallikning nozik tomoni shundaki, u asoslash va sharhlash uchun ochiq bo'lishi kerak. Bu holat esa mazkur yondashuv masalaning muhimligini ko'rsatadi va uni o'rganishni taqozo qiladi.

Intertekstuallik funksiyasi muallifning g'oyasi bilan belgilangani holda kiritilgan qo'shimcha tekst orqali asosiy tekstni kitobxon prizmasi orqali chuqur anglanishiga erishishdan iboratdir. Intertekstuallikning turlari va funksiyalarini tahlil qilishdan shunday ishonchli xulosa qilish mumkinki, har qanday intertekstual aloqalar tekstlarning lug'aviy o'xshashligiga ham, ularning tarkibiy o'ziga xosligiga ham asoslanadi. Birinchidan, intertekst tekstga ma'lum bir fikrni yoki fikrni

---

<sup>6</sup> Broich U. Formen der Markierung von Intertekstualität // Intertekstualität. Formen. Funktionen, anglistische Fallstudien. – Tübingen: Max Niemeyer Verlag, 1985. – S.40.

<sup>7</sup> Pfister M. Konzepte der Intertekstualität // Intertekstualität. Formen. Funktionen, anglistische Fallstudien (Herausgegeben von Ulrich Broich und Manfred Pfister. – Tübingen: Max Niemeyer Verlag, 1985. – 27.

ifodalashning o'ziga xos turini kiritadiki, bu tekstning bir butunlik sifatida mavjudligini mutlaqlashtiradi.

Intertekslar manba shaklidagi tekstning tayanch asosidir. Ular badiiy va ilmiy tekstlarning asosiy qismi hisoblanadi. Muallif interteksti tufayli badiiy va madaniy xotiraning butun kengligi bir butun mazmun hosil qiluvchi element sifatida ikkinchi darajali tekstlar konglomerati tasodifiy yig'indisiga kiritiladi. Barcha yangi farazlar va kashfiyotlar mavjud faktlarda asoslanadi. Bu esa barcha zamonlarda intertekstlarga ehtiyojning mavjud bo'lganligidan va bundan keyin ham shunday bo'lishidan dalolat beradi. Mavjud badiiy tekstlar davom ettiriladi yoki masalaning yangi jihatlari ochib berilib chuqurlashtiriladi yoki tanqid ostiga olinib rad etiladi. U yoki bu holatda ham intertekstuallik bilan isbotlanadi.

Dissertatsiyaning **“Ingliz va rus yozuvchilar asarlarida intertekst ifodalanishining o'ziga xosliklari”** deb nomlangan **ikkinchi bobida** intertekstning manbalari hamda ingliz va rus yozuvchilari asarlarida ularning ifodalanish usullari tahlil qilingan.

Badiiy tekst doirasida intertekstuallik bir tomondan umumiy kontekst bilan bir butun bog'langan qo'shimcha axborot sifatida namoyon bo'ladi, boshqa tomondan “begona so'z” sanaladi va u bilan bog'liq tekst yaratiladi hamda begona tekst “pishiriladi”.

Ingliz va rus badiiy asarlarida turi manbalardan olingan intertekstlar ko'p foydalaniladi, jumladan, Muqaddas kitoblar, Qadimiy Rim va Qadimiy Gretsiya adabiyoti, mashhur insonlar fikrlari, badiiy adabiyotlar kabi.

Intertekstlar manbalari orasida Muqaddas kitoblar keng o'rin egallaydi. Mazkur kitoblardan iqtiboslar asar syujetidan qat'iy nazar deyarli barcha ingliz va rus adabiyotlariga singib ketgan. Masalan, **ingliz tilida:** *“God opposes the proud but favors the humble”*, *“...ибо Бог гнушается гордыми, смиренным же дает благодать...”*[Bunyan, 2016, p. 48], aslyatda ushbu iqtibos batafsilroq ochib berilgan *«За гордостью следует низложение, а за низложением – прославление. Бог гордым противится, а смиренным дает благодать и, все соразмеряя праведно, воздаст за противное – противным»* (Iak 4:6).

**Rus tilida:** *«...до сих пор говорили: «возлюби», и я возлюблял, то что из того выходило? – продолжал Петр Петрович, может быть с излишнею поспешностью, – выходило то, что я рвал кафтан пополам, делился с ближним, и оба мы оставались наполовину голы... Наука же говорит: возлюби, прежде всех, одного себя, ибо все на свете на личном интересе основано. Возлюбишь одного себя, то и дела свои обделаешь как следует, и кафтан твой останется цел»* [Dostoyevskiy, 1866, B.10], ko'rinib turibdiki, «до сих пор говорили «возлюби» deganda Bibliyadagi quyidagi fikr ko'zda tutilgan: *«Он сказал в ответ: «возлюби Господа Бога твоего всем сердцем твоим, и всею душою твоею, и всею крепостию твоею, и всем разумением твоим, и ближнего твоего, как самого себя»* (Lk. 10:27).

Yozuvchilar asarlarida diniy intertekstual havolalardan o'zgarishsiz foydalanilgan, chunki rad etish va ishonmaslik aslyat manbadan uzoqlashtiradi. tarafdorlar yoki muxoliflarning barcha fikrlari u yoki bu tarzda diniy qarashlar va tekstdan parchalar asosida muhokama qilinadi.

Rus badiiy adabiyotida intertekstuallik Qur'ondan o'zlashmalarga ham asoslanadi. Qur'ondagi muqaddas tekstlardan foydalangan yozuvchilar orasida A.S.Pushkin, L.N.Tolstoy, F.M.Dostoevskiy, I.A.Bunin, F.I.Tyutchevlar alohida ajralib turadi.

A.S.Pushkinning «Подражание Корану, клянусь четой и нечетой» she'ridan iqtiboslarni ko'rib chiqamiz: «Клянусь четой и нечетой...», «...Клянусь вечернею молитвой...», «...Люби сирот, и мой Коран Дрожащей твари проповедуй...» [Пушкин, 2011, с. 18]. «Люби сирот» so'zlari "Al'-Maidat" surasi ta'sirida yaratilgan. Bu payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ning vafot etgan musulmonlarning farzandlari haqida g'amxo'rlik qilish iymonga ergashish ekanligidan dalolat beradi. «Мой Коран» so'zlari o'zlashmalar manbasiga ishora qiladi. Asliyatda: «...Видел ли ты того, кто считает ложью воздаяние? Это – тот, кто гонит сироту, и не побуждает накормить бедняка [Qur'on, 107-surasi].

Ingliz va rus yozuvchilari asarlaridagi intertekstning yana bir manbasi antik falsafadan olingan pretsedent tekstlardir. Masalan, **ingliz tilida:** Ch.Dikkensning "Katta umidlar" asari misolida tahlil qilamiz:

*"Everyone should be rewarded in justice, so that no one is hurt"* [Dickens, 2011, p. 484], tarjimada, asliyatda ushbu jumla M.T. Sitseronning degan fikrida aks etgan.

**Rus tilida:** A.S.Pushkinning "Я памятник себе воздвиг некорукотворный..." she'ridagi kelib chiqishi lotin tilida bo'lgan intertekst: «Я памятник себе воздвиг нерукотворный, к нему не зарастет народная тропа, вознесся выше он главою непокорной Александрийского столпа. Нет, весь я не умру – душа в заветной лире Мой прах переживет и тленья убежит – И славен буду я, доколь в подлунном мире Жив будет хоть один пиит. Слух обо мне пройдет по всей Руси великой, и назовет меня всяк сущий в ней язык, и гордый внук славян, и финн, и ныне дикой Тунгус, и друг степей калмык...» [Pushkin, 1959-1962, В.48]. Ushbu satrlar Goratsiyning «Воздвиг я памятник вечнее меди прочной»: «Воздвиг я памятник вечнее меди прочной..., Нет, весь я не умру, и жизни лучшей долей... Избегну похорон, и славный мой венетс... И скажут, что рожден, где Ауфид говорливый..» odasidan olingan [Fet, 1883, s. 194].

Ta'kidlash joizki, ingliz adabiyotidan farqli ravishda rus adabiyotida antik falsafadan o'zlashmalar olishda o'ziga xosliklar va xususiyatlar mavjud: intertekstuallik dunyoni anglash, tabiat, koinot, go'zallik, insoniy sifatlar haqida fikrlash jarayoni, tafakkur va tinchlanish manbalarining badiiy-konseptual sinteziga emas, balki antik tekstning o'ziga tayanadi.

Ingliz va rus adabiyotida mashhur insonlarning iqtiboslaridan foydalanishda tarixda muhim o'rin tutgan, fan va madaniyatda iz qoldirgan, kashfiyotlar, ixtirolar qilgan shaxslarning fikrlariga tayaniladi. Taniqli rassomlar, faylasuflar va mutafakkirlarning mashhur fikrlaridan keltirilgan intertekstlar tekstga haqqoniylik baxsh etadi, ba'zan esa mualliflarga nufuzli misollar keltirib o'z fikrini chuqurroq bayon qilishga imkon beradi. Masalan, **ingliz tilida:** O.Uayldning «The picture of Dorian Gray» nomli asarida mashhur rassomlardan keltirgan iqtiboslarini namuna sifatida ko'rib chiqamiz.

Asardan iqtiboslar: *“The artist is this one who creates the beauty: (“художник – это тот, кто создает прекрасное”)* degan fikr Pablo Pikassoning *“Искусство – воплощение прекрасного”* fikri, shuningdek, *“Do not ascribe to the artist unhealthy tendencies: he is allowed to depict everything” – “Не приписывайте художнику нездоровых тенденций: ему дозволено изображать все”* iqtibosi Ogyust Rodenning *«Истинный художник, выражает, то что, думает, не страшась противодействия вековых предрассудков»* jumlasidan o‘zgartirib olingan.

Rus badiiy tekstlarida G‘arb olimlarining fikrlarini intertekst manbasi sifatida keltirish, asosan, monoton qarashlarni yangi, o‘zgacha g‘arb nuqtayi nazari bilan yangilash maqsadida foydalanilishi e‘tiborga loyiq. **Rus tilida:** A.S.Pushkinning *“Скупой рыцарь”* nomli tragediyadagi intertekstual aloqalarni ko‘rib chiqamiz: *«...А нынче что скажу? О бедность, бедность! Как унижает сердце нам она! Когда Делорж копьем своим тяжелым пробил мне шлем имимо проскакал»* [Пушкин, 2014, В.322]. Ushbu satrlar Fridrix Shillerning *«Перчатка»* asaridan o‘zgartirib olingan: *«... И гости ждут, чтоб битва началась, вдруг женская с балкона сорвалась перчатка...; все глядят за ней, она упала меж зверей. Тогда на рыцаря Делоржа с лицемерной и колкою улыбкою глядит..., Делорж, не отвечав ни слова..., к зверям идёт...»* [Shiller, 2015, В. 8].

Bunday asarlar ma‘lum ma‘noda yengillik paydo qiladi, boshqa tildagi optimistik intertekstlar rusiyzabon qahramonlar hayoti bilan ajoyib tarzda birlashadi va turli semantik qurilmalar yaratiladi.

Ingliz va rus yozuvchilari uchun intertekstuallikning asosiy manbalaridan biri badiiy adabiyot hisoblanadi. Yozuvchilar badiiy adabiyotdan nafaqat motivlar, syujetlar, obrazlar, insonlararo munosabatlar va vaziyatlarni, shuningdek bevosita tekst parchalarini ham o‘zlashtiradilar. Masalan, **ingliz tilida:** T.Xardining *«The Woodlanders»* asaridan olingan tekst parchasi: *«Ever it happens that even among the moodiest the tendency to be cheered is stronger than the tendency to be cast down; and souls specific gravity stands permanently less than that of the sea of troubles into which it is thrown»*. [Hardy, 2018, p.36] Tarjimada *“Так уж заведено, что даже самые мрачные люди легче поддаются оживлению, нежели унынию; душа все же легче, чем беды, и всегда всплывает над их океаном”* O‘zlashtirilgan intertekst Gamlet monologidan olingan.

**Rus tilida:** A.Ahmatovannig *“Листки из дневника”* asaridan *«Второе, никем до сих пор не отмеченное и, по-моему, более значительное восхождение к Шекспиру находится в заключительной сцене трагедии «Каменный гость»:* *“...Но как могли придти сюда вы; здесь узнать могли бы вас, и ваша смерть была бы неизбежна, В черновике: узнать могли бы люди. Juliet How cam’tst them hither, tell me, and wherefore. And the place death, considering who thou art, if any of my kingsmen find thee here” (“Romeo and Juliet”, act II, sc. 2).* [Ahmatova, 2017, с.9]

Ingliz va rus badiiy tekstlarida intertekstuallik ifodalanishining bir necha vositalari mavjud: bevosita, bilvosita, umumiy kontekst bilan sintaktik aloqaga

kiruvchi, begona element sifatida ishlatilgan, kirish soʻzlar bilan kelgan intertekstuallik, qisqa oʻzlashma, intertekstdan yashirin foydalanish.

Demak, badiiy tekstda **bevosita** intertekstlarni koʻrib chiqamiz. Masalan, **ingliz tilida**: Dj.G.Bayronning “Cain” asari muqaddimasida Bibliyadan iqtibos qoʻllanilgan:

“Now the snake was wiser than any beast of the field which the Lord God had made. And he said...” (Genesis 3:1), «Змий же бе мудрейший всех зверей сущих на земли, их же сотвори господь бог.» (Быт. 3, I.) [Byron, 2012, p. 4].

**Rus tilida**: I.A.Buninning “Ночь Аль Кабра” asari sarlavhasi butun bir suraning mazmunini ifodalangan, iqtibos-epigraf keltirilgan: «В эту ночь ангелы сходят с неба» (Qurʼon, 97-sura, 4-oyat). “Тамжид” sheʼridan parcha va undan iqtibos: «Он не спит, не дремлет», “Корова” surasining 255-oyatidan bevosita olingan (Qurʼon, 2-sura, 255-oyat).

Navbatdagi intertekst begona soʻzlarni **bilvosita** keltirish metodi qoʻllangan. Masalan, **ingliz tilida**: Ch.Dikkensning “Посмертные записки” asaridan:

«But here’s what he wants to say: if ever a fire of vanity flashed in his chest, the thirst to benefit the human race prevailed, and this fire was extinguished. “Praising people for him is a threat of arson»» [Dickens, 2006, p.13], tarjimada «но вот что он хочет сказать: если когда-нибудь и вспыхивал в его груди огонь тщеславия – жажда принести пользу роду человеческому брала верх, и этот огонь угасал. «Похвала людей для него – угроза поджога». Oxirgi satr «Suing» tarixiy idiomasi ishora qiladi. Angliyada oʻylab topilgan “Kapitan Suing” nomi bilan xatlar imzolangan va odamlarga shantaj yoki xavf qilish maqsadida yuborilgan. “Suing xatlari” tushunchasi ana shundan boshlangan ([www.dic.academic.ru](http://www.dic.academic.ru)).

**Rus tilida**: L.N.Tolstoyning “Anna Karenina” romanidan misollar. Romanning asosini Bibliyadan iqtiboslar tashkil qiladi. Keltirilgan bilvosita iqtibos romandagi 43-epigraf hisoblanadi: “Много худого люди делают сами себе и друг другу только оттого, что слабые, грешные люди взяли на себя право наказывать других людей. “Мне отмщение, и аз воздам” (“Odamlar oʻz-oʻziga va bir-biriga juda koʻp yomonlik qiladilar, chunki zaif, gunohkor odamlar boshqa odamlarni jazolash huquqini oʻz zimmalariga olganlar. “Qasos meniki va men toʻlayman”) [Tolstoy, 1960, B.181] Bibliyadan olingan (Rim 12:19): “... но дайте место гневу [Божию]. Ибо написано: Мне отмщение, я воздам, говорит Господь”.

Umumiy kontekst bilan sintaktik aloqaga kirishuvchi intertekst. **ingliz tilida**: V.Skottning «Quentin Durvard» asaridan: «Look, brother, beware if at least one link of this chain, instead of the hands of a monk, ends up in a tavern! I will trim you with a whip so that you will have no more skin left than on St. Bartholomew ...», tarjimada «Да смотри, брат, берегись, если хоть одно звено этой цепочки вместо рук монаха попадет в кабак! Я так отделаю тебя плетью, что на тебе останется не больше кожи, чем на святом Варфоломее...» [Scott, 2013, c.15]. Bu oʻrindagi parcha avliyo Varfolomey haqidagi diniy afsonani eslatadi, unga koʻra u ogʻir azoblar va qiynoqlarga solinib, terisi tiriklay shilib olingan.

**Rus tilida:** F.M.Dostoyevskiyning “Идиот” romanidan «Нет беды, нет беды! – подхватил, поспешно подходя и обрадовавшись, что начали смеяться, – нет беды: «*se non e vero...*» – беру назад» [Dostoyevskiy, 2003, B. 28], qo’shtirnoqqa olingan iqtibos italyan tilidan tarjimada “bu yolg’on bo’lsa” ma’nosini ifodalab, Djordano Brunoning “Gli eroici furori” yilnomasidan qisqartirilgan iqtibos hisoblanadi. Asliyatda “*Se non e vero, e ben trovato, Se non e vero, e ben trovato*”, tarjimasi “agar bu yolg’on bo’lsa, yaxshi o’ylab topilgan”.

**Begona element bo’lgan intertekst ingliz tilida:** P.G.Vudxausning “The Inimitable Jeeves” “*Claude and Eustace looked at each other, like those guys in the a poem «in a silent daze*” asarlarida [Woodhouse, 2005, p. 29] – «Клод и Юстас посмотрели друг на друга, как те парни в стихотворении «В немом оцепенении» “in a silent daze” parchasi Djon Kitsning «On First Looking into chapman’s Homer» she’ridan olingan. Mazkur parchadagi begonalikni “she’ridagi yigitlar kabi” so’zlaridan aniqlab olish mumkin, muallif mazkur so’z birkmasi o’zlashtirilganligini ta’kidlab, begona fikrga urg’u beradi.

**Rus tilida:** I.A.Buninning «Жизнь Арсеньева» qissasidan: «Остался и я – и не только ради Анхен...: мне зачем-то хотелось длить те двойственные чувства, которые владели мной и заставляли не расставаться с «Фаустом», нечаянно попавшим тогда в мои руки среди Писаревских книг и совершенно пленившим меня: «*Потоками жизни, в разгаре деяний, Невидимый, видимо всюду присутствующий, я радость и горе, я смерть и рожденье, Житейского моря Живое волнение — На шумном станке мирозданья. От века сную без конца и в твари, и в недрах созданья Живую одежду творца...*» [Bunin, 2003, c. 10]. Ko’rinib turibdiki, yozuvchi I.V.Gyotening “Faust” asariga ishora qiladi. Bu intertekstuallik sevikli yoridan ayriliqda bo’lgan qahramonning ichki kechinmalarini yaxshiroq anglashga xizmat qiladi.

Kirish so’zlar bilan kelgan intertekstuallikni ingliz tili misolida ko’rib chiqamiz. Piter Akkroidning «Chatterton» detektiv asarida quyidagi satrlar bor:»*Let us quote the words of the great poet Wordsworth: O marvelous youth with soul sleepless, You will never perish in pride*» [Ackroyd, 2000, p. 66] – «Приведем же слова великого поэта Вордсворта: о дивный юноша с душой бессонной, Ты никогда в гордыне не погибнешь». O’zlashtirilgan intertekst «*Buyuk shoir Vordsvort so’zlarini keltiramiz*» kirishlari bilan keltirilgan, «*Teou marvellous young man... Wite your sleepless soul never periseing in pride*» [Wardsworth, 2000, p. 40] iqtibos – «Ты чудесный молодой человек ... Умеешь свою бессонную душу, никогда не переживающую гордости» – bu iqtibos Uil’yam Vordsvortning «*Determination and freedom*» she’ridan o’zgartirilgan iqtibos, asliyatda «*...tee marvellous boy, ... Tee sleepless soul teat periseed in yeis pride*», tarjimada esa «...тот мальчик дивный...С душой бессонной, в гордости погибший».

**Rus tilida:** F.M.Dostoevskiyning “Преступление и наказание” asaridan «...Ничего-с! Сим покиванием глав не смущаюсь, ибо уже всем все известно и все тайное становится явным; и не с презрением, а со смирением к сему отношусь...» [Dostoyevskiy, 1866, c.12] jumlasida asliyatda [Evangeliya ot Marka, gl. 4, s. 22] tarzida kirish so’zlar bo’lib “*ибо уже всем все известно*” degan iqtibosda ishtirok etadi.

Intertekstuallikning qisqa o‘zlashmalar bilan berilishini ko‘rib chiqamiz. Ingliz tilida Dj.Kou asari “What a Carve Up!”. Detektiv xususiyatlarga ega bo‘lgan sarguzasht asarda juda ko‘p siyosiy hazillar va kinoyalar mavjud. Romanda intertekstual havolalar, turli kitoblar va filmlarga ishoralar ko‘p qo‘llangan “... hozirgina qolib ketgan quyosh nuri esa menga uzoq va noaniq xotira bo‘lib tuyuldi perque leves populos simulacraque functa sepulchre ko‘zimga ko‘rindi ...” [Kou, 2011, B. 24], lotincha jumlaning tarjimasini “... ko‘plab tanasiz soyalar, o‘lik sharpalar...” Ovidiyning “Metamorfozalar” asaridan qisqa iqtibos hisoblanadi.

**Rus tilida:** yozuvchi B.Akuninning “Azazel” asaridan. “Порядок есть порядок, ... Я, Лизхен, всегда вам повторила: Ordnung muss sein. Надо быть послушным закону. Вы можете оставаться» [Akunin, 2012, c. 8], chet tilidagi jumlaning tarjimasini “Tartib bo‘lishi kerak” Prussiya qiroli Fridrixning mashhur jumlasidan qisqa iqtibos hisoblanadi, keyinchalik uni Paulь fon Gindenburg o‘ziga shior qilib olgach, butun dunyoga mashhur bo‘lgan. Asliyatda: “Ordnung muss sein, sagte Hans, da brachten sie ihn in das Spinnhaus” – “Tartib bo‘lishi kerak, dedi Gans, va uni jinnixonaga tiqishdi”.

**Intertekstuallik ifodalanishining yashirin usuli. Ingliz tilida:** Nisbatan zamonaviy adabiyotdan R.Bredberining “Dandelion Wine” qissasidan “Parents and children are two different people, that’s why they always fight between themselves. Look, they are not at all like us. Look, we not at all like them. Different peoples – and they will not understand each other» [Bradbury, 2011, p. 7] Ushbu jumladan oxirgi gap R.Kiplingning “The Ballad of East and West” balladasiga ishora qiladi: “The West is the West, the East is the East, and from the place they will not come down. They will not come down and they will not understand each other” [Kipling, 2000, p. 5] – “G‘arb bu G‘arb, Sharq bu Sharq, ular hech qachon bitimga kela olmaydi, bir bo‘lmaydi”, ushbu satrda “G‘arb bu G‘arb, Sharq bu Sharq” birinchi satrlar o‘rniga “Turli xalqlar” sinonimik so‘z birikmasi keltirilgan.

**Rus tilida:** Yozuvchi B.Akuninnig «Турецкий Гамбит» asari. Fandorin va Varyaning dialogi: «У меня, Варвара Андреевна, есть одно странное свойство. Я т-терпеть не могу азартных игр, но когда приходится играть, неизменно выигрываю. Les caprices de la f-fortune» [Akunin, 2013, c. 4]. Bu parchada intertekstni aniqlash qiyin, chunki u qo‘shirnoqlar bilan chegaralanmagan, xorijiy jumla bir qarashda muallif so‘zlarining davomiga o‘xshaydi, ammo jumlaning siyqasi chiqqanligi oldin ishlatilganidan dalolat beradi. “Капризы фортуны” (“Фортуна инжиқликлари”) tarjimasida so‘z birikmasi R.Stivenonning “Ship secrets” kitobining IV bobida epigraf sifatida ishlatilgan edi: “I feel, «the whims of fortune” – “Men “Fortuna injiqliklari”ni boshimdan kechirmoqdaman” [Stevenson, 2017, p. 44].

Rus yozuvchilari ingliz adiblaridan farqli ravishda muayyan qismlar, voqealar rivojlanishi, qahramonlar xarakteri va asarning asosiy mazmunini o‘zlashtirishdan iborat g‘oyaviy intertekstdan foydalanishadi. **Rus tilida:** Agar timsollar takrorlanishi va syujetli avtogenez haqida fikr yuritilsa, G.A.Byurgerning “Lenora” g‘oyasi bo‘yicha yozilgan V.A.Jukovskiyning “Ludmila” balladasini misol keltirish mumkin. Jukovskiynemis yozuvchining g‘oyasini Rossiyaga ko‘chirdi, rus xalqi turmush tarziga yaqinlashtirdi va she‘riy leksika yordamida hikoyani kitobxonlar ommasiga taqdim etdi. Bizning nazarimizda bu oddiy tarjima emas, balki asarda

muallifning kichik o'zgarishlarini, asosan qahramon xarakteri va timsolida iqtiboslar, shuningdek ssenariy o'zida ham muayyan o'zgarishlarni ko'rish mumkin.

Ballada syujeti – bu fantastika va melodramaning qorishmasidan iborat. Asosiy qahramon Ludmila, baxtsiz, yoridan ayrilib, sevgilisidan keyin o'zi ham o'lmoqchi; uning istagi taqdir tomonidan bajarildi, o'lgan qallig'i kelib, uni o'zi bilan olib ketadi: «*Расступись, моя могила; Гроб, откройся; полно жить; Дважды сердцу не любить*» – deydi Ludmila va marhumlar dunyosiga ketadi [Jukovskiy, 2012, b.45].

Umuman, ingliz va rus badiiy tekstlarida eksplitsit va implitsit iqtiboslar, bevosita va bilvosita intertekstuallik, ikkilamchi tekstlar (parodiya qilingan va o'zgartirilgan tekstlar) foydalaniladi.

